



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz



E-ISSN 2181-1466

9 772181 146004



ISSN 2181-6875


9 772181 687004

6/2024

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



6/2024

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Yuldasheva D.N., Axtamova N.B.	O'zbek tili qavm-qarindoshlik leksikasining diskursiv tahlili	3
Bobokalonov O.O., Jumayev A.A.	Linguistic features of phytomorphic and zoomorphic images in french and german fairy tales	10
Navruzova M.G.	O'zbek xalq ertaklarida tibbiy birliklar	16
Jonridova S.Sh.	Tilshunoslikda implikasiya masalasining o'rganilishi	20
Abdulxayrov D.P.	Ekskursiya nutqida kommunikativ ko'nikmaning roli	26
Azimova S.Kh.	Intercultural pragmatic features of speech acts of expressing "surprises" in American culture	31
Fattoyeva Z.R., Botirova F.B., Quziyeva T.F.	Qishloq xo'jaligiga oid terminlarning tuzulishiga ko'ra turlari	35
Jalilov B.H.	Ingliz internet leksikonida paydo bo'lgan neologizmlarning lisoniy tahl	39
Kdirbaeva U.K.	Sintaktik takroming lingvopoetik ahamiyati	44
Mansurova N.A.	Marketing va menejment terminlarining ingliz va o'zbek tillaridagi o'zlashmalari	48
Nuriddinova Sh.K.	Tibbiy eponimlarning morfologik-struktur tabiati	53
Ruziev Y.B., Qosimova Z.S.	The definition of punctuation and the role of punctuation marks in german	58
Qurbonova D.O.	Pragmatic features of advertisementy in the english language	63
Radjabquliyeva M.A.	Reklamalarning jahon va o'zbek tilshunosligida tadqiqi masalasi	67
Tilavova M.A.	Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida qo'llanilgan zid ma'noli ayrim birliklar	71
Sattorova Sh.Sh.	Modallik kategoriyasining tadqiq darajasi va talqini	75
Shamsiddinov T.G'.	Political discourse as an object of linguistic research on the examples of speeches of different presidents	79
Shamsiyeva S.R.	Tilning badiiy tasvir vositalari bo'lmish metafora va metanimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	84
Karimov R.A., To'xtayev N.N.	Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning etimologik tahlili	88
Yusupova D.Y., Furqatova M.F.	Elbek – jadedlar davrida yaratilgan birinchi lug'atlar muallifi	93
Markova Y.S., Zokirova N.S.	The nature, causes and solutions of lexical problems in translation	98
Muxtorova D.F.	National-specific and culture relevant phraseological units in english and their cultural connotation	103
Samandarov R.D.	Abzaslararo bog'lanishda applikatorlarning o'rni	108
Ubaydova H.A.	Maqollardagi ichki antonimiyaning tuzilish jihatdan tadqiqi	113
Korshunova A.V.	Russian phraseological expressions with a phytonym component	118
Saidova N.A.	Frazeologik birliklarning milliy-ma'daniy xususiyatlari va ularning nazmiy va nasriy asarlarda qo'llanishi	123
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation analysis of islamic terms both in english and uzbek religious texts --prophets names translation	128
Jo'rayeva M.M., Xayrullayeva U.A.	Gazeta sarlavhalarining pragmatik til vositalari (fransuz va o'zbek gazetalari misolida)	132
Axmatova I.H.	Olot tumani etnotoponimlarining semantik tahlili	136
Gasimova I.A.	French linguists' syntactic views	142
Yuldasheva D.N., Asadova Sh.A.	Nutqiy muloqotda lingvoma'naviy birliklar	146

Расулова С.Г.	Макрополе «космоним» в топонимах русского и азербайджанского языков	152
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Rizayev N.S.	O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining jadidchilik harakati g'oyalari bilan hamohangligi (ijtimoiy – falsafiy tahlil)	155
Adizov B.T.	Ommaviy axborot vositalarida siyosiy partiyalar faoliyatining xorij tadqiqotlaridagi tavsifi	159
Ahmadxojaev M.Z.	Legal basis of organizing the activity of a political leader	164
Asadova R.B.	O'zbekiston va Hindiston davlatlarining fan va ta'lim sohalaridagi hamkorligi	168
Turg'unboyeva D.A.	Migratsiyaning o'rganish borasidagi ilmiy amaliy tadqiqotlar	173
Ro'ziyeva G.S.	Madaniyat milliy o'ziga xoslik va milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida	179
Turgunbayeva D.A.	Study of the migration problem by uzbek scientists	183
Yusubov J.Q., Xusanova D.A.	Davlat fuqarolik xizmatchilarini shakllanishida ma'naviy-siyosiy dunyoqarashning o'rni	187
Musayev M.T.	Missionerlik va prozelitizm tahdidini bartaraf etish va uning strategik vazifalari	193
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Hayitov Sh.A., Rahmatov M.M.	BXSR va Germaniyada moliyaviy holat va narx-navo: qiyosiy tahlil (1920-1924-yillar)	197
Qudratov Sh.Y.	Buxoro jadidlarining tadbirkorlikka oid yondashuvlari	201
Radjabova N.M.	BXSRda musiqa ta'limi va qo'shiqchilik san'ati	205
Xamrayev I.M.	Buxoro shahri hayoti va suv xo'jaligi tizimida Labi hovuz ansamblining tutgan o'rni	209
Гадоев Д.Х.	“Халифа Худойдод” жомеъ масжиди тарихи	213
Зарипов С.Дж.	Переселенческая политика Узбекистана под влиянием советов, трудовые ресурсы промышленности и сельского хозяйства	218
Niyozova M.I., Djumayeva S.S.	Buxoro muzey qo'riqxonasi ekspozitlari to'plamidagi o'rin olgan ossuariylar	222
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F., Qahhorov X.X., Umrzegov J.B.	Korxonalar boshqaruv faoliyatini baholashning xorij mamlakatlar tajribasi	226
Salimov A.F., Xolmatova M.S.	Iqtisodiyotning real sektorini isloh qilish va takomillashtirish istiqbollari	231
Salimov A.F., Shokirova D.O.	Korxonalarning asosiy faoliyatini baholash tizimini boshqarishni takomillashtirish	235
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Ubaydullaev S., Begmuradov Sh.D.	Possibilities to increase educational efficiency of students in physics through organizing virtual laboratories	240
SAN'AT*** ART *** ИСКУССТВО		
Bayramov M.A.	Memar ajami's creative works as a historical and cultural heritage	246
Huseynova R.H.	The historical development path of polyphonic series and its implementation in the creativity of azerbaijan composers	252

**TOHIR MALIKNING „ODAMIYLIK MULKI” ASARIDA QO’LLANILGAN ZID MA’NOLI
AYRIM BIRLIKLAR**

*Tilavova Munisxon Alijon qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti
o‘zbek va rus tillari kafedrası o‘qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrası mustaqil izlanuvchisi
tilavovamunisxon94@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asari tarkibida zid ma’noli frazeologik birliklarning ifodalanishi haqida bir qancha misollar orqali isbotlangan. Zid ma’noli birliklar qatoridan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni qarshilantirish orqali ularni yanada ta’kidlash imkoniga ega bo’ladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, frazeostilistik vositalar, kontekstual zid, turkumlararo antonimiya, individual xarakter.

**НЕКОТОРЫЕ ЕДИНИЦЫ С ПРОТИВОРЕЧИВЫМ ЗНАЧЕНИЕМ ИСПОЛЬЗОВАНЫ В
РАБОТЕ ТАХИРА МАЛИКА «СОБСТВЕННОСТЬ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА»**

Аннотация. В данной статье работа Тахира Малика «Собственность человека» подтверждается несколькими примерами выражения фразеологизмов с противоречивым значением. Используя ряд контрастных единиц, писатель получит возможность подчеркнуть разные понятия, знаки, ситуации и образы.

Ключевые слова: фразеологизмы, фразео-стилистические приемы, контекстуальный контраст, межкатегориальная антонимия, индивидуальный характер.

**SOME UNITS WITH CONTRADICTORY MEANINGS USED IN TAHIR MALIK'S WORK
"HUMANITY PROPERTY"**

Abstract. In this article, Tahir Malik's work "Human Property" is proved by several examples of the expression of phraseological units with contradictory meanings. By using a series of contrasting units, the writer will have the opportunity to emphasize different concepts, signs, situations, and images.

Key words: phraseological units, phraseostylistic devices, contextual contrast, intercategory antonymy, individual character.

Hayotdagi xilma-xil voqea hodisalarning tagiga yetish, turli-tuman harakat holatlarga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalari bo‘lmish frazeologik iboralar badiiy matnda deyarli hamisha poetik aktual bo‘ladi. Shuning uchun ham iboralar badiiy matnning lingvopoetik tahlilida alohida o‘rin tutadi. Iboralardan obrazlilik hamisha sezilib turganligidan, semantik tarkibida kompotatsiya ustuvor bo‘lganligidan so‘zga qaraganda ular badiiy mazmunga faolroq xizmat qiladi. Tohir Malik o‘z asarida iboralardan o‘ta unumli foydalangan. Har bir ibora to‘g‘ri tanlanganki, asar tili jozibali, ta’sirli bo‘lishiga zamin yaralgan.

Yozuvchi olg‘a surgan g‘oyaning o‘quvchilar ommasiga to‘la yetib borishida ham asar tili muhim ahamiyatga ega. Haqiqatan, asar tili o‘sha g‘oyani talqin etishda iboralarning siliq, silliq bo‘lishi, so‘zlarning o‘z o‘rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Har bir yozuvchi asar tilining shirali, badiiy va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlashda «so‘z va ibora tanlash mashaqqati»ni boshdan kechirib, kitobxonga manzur bo‘ladigan birliklar topishga harakat qiladi, ohori to‘kilmagan iboralar ustida qayta-qayta bosh qotiradi va shu mehnat jarayonida to‘laqonli obraz yaratishga imkon beradigan badiiy vositalarni qo‘lga kiritadi. Bunday vositalardan qay darajada foydalanish esa ijodkor uquvi va qobiliyatiga bog‘liq. Bu kabi imkoniyatlar umumxalq tilida hisobsiz bo‘lib, ular yozuvchi va so‘z materiali bilan ish ko‘ruvchi notiqdan butun kuchini sarf etishni, katta ijodiy mehnat qilishni talab qiladi. Yozuvchi uslubidagi o‘ziga xoslik, uning tilidagi individual xususiyatlar umumxalq tilida mavjud bo‘lgan ifodalash vositalarini tanlashdagi boy imkoniyatlar tufayli ochiladi. Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga o‘z lug‘at xazinasidagi hamma vositalarni

berishdan tashqari, ulardan tanlab olish imkoniyatini ham beradi, umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga grammatik tomondan tayyor va qat'iyashtirilgan so'z, ibora va gap qurilishlarining qoliplarini berishdan tashqari yana turli xildagi so'z, ibora va gap qurilishlari variantlaridan ham tanlab olish imkoniyatini beradi.

O'zaro zid ma'noli so'zlar antonimlardir. Antonimlar yozma va og'zaki nutqda katta ahamiyatga ega. Ular fikrni ifodalay va ta'sirli qiladi. Shuning uchun ham ular badiiy tasvirda keng qo'llaniladi.

Tohir Malik "Odamiylik mulki" asarida zid ma'noli birliklar asosida yuzaga keltiriladigan tazod, zidlantirish, qarshilantirish san'atining betakror namunalarini yaratgan. Zid ma'noli birliklar qatoridan foydalangan holda yozuvchi turli tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlarni qarshilantirish orqali ularni yanada ta'kidlash imkoniga ega bo'ladi.

Barcha jonli tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining rivojlanishida ham og'zaki ham yozma adabiyotning roli beqiyosdir. Badiiy adabiyotda nutq vositalarining barchasi poetik tasvirda ishtirok etadi. Shularning biri sifatida frazeologik birliklar badiiy adabiyot va badiiy nutqda o'ziga xos o'ringa ega. Mohir yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub ma'naviyat, tarbiya va imon-e'tiqod masalalariga bag'ishlangan „Odamiylik mulki“ asarini „Axloq kitobi“ deb atashimiz ham mumkin. Tohir Malik bu asarda xalqimiz tomonidan yaratilgan, o'ziga xos obrozni ifoda etadigan frazeologik birliklarni badiiy adabiyotda juda katta mahorat bilan qo'llagan. To'g'ri tanlangan frazeologik birlik asar mohiyatini o'zgacha bir ruh kasb etadi. Bu esa asarni yanada ta'sirli va mukammal bo'lishini ta'minlagan.

Asarda foydalanilgan frazeologik zid ma'nolilik ot, sifat va fe'l turkumlariga oidligini kuzatamiz. Jumladan,

fe'l turkumiga oid antonimik frazeologizmlar:

boshiga baxt qushi qo'nmoq – boshi kulfatda qolmoq:

Payg'ambarimiz (s.a.v.) "Musulmonning uyi jannat bog'idan bir bog'chadir", deganlar. Bundan ibrat shuki, "jannatda o'sgan" qizga uylangan erning **boshiga baxt qushi qo'nibdi**. Ammo baxt qushi qo'nishi uchun uning o'zi ham jannatda o'sgan bo'lishi kerak. (103-bet) – O'zidan yuqori darajadagi qizga uylansa, xotini otasining hashamati va dabdabasiga mag'rur bo'lib, erni mensimay qolishi mumkin. Unda har qanday erning **boshi kulfatda qoladi**. (103-bet)

jahli chiqmoq – boshi osmonga yetmoq:

–Bu odam o'ldimikan yo hali ham tirikmikan? – deb Shan hamrohidan so'rabdi.

Hamrohining battar **jahli chiqibdi**:

–Umrin bino bo'lib sizga o'xshagan ahmoqni endi ko'rishim. Qabristonga ko'tarib olib ketilayotgan o'likni tirikmi yo o'likmi, deb so'rashingiz aqlli odamning gapi emas. Iltimos, endi gapirmay jim keting. Gapirsangiz ko'nglim ozib ketayпти. (102-bet) – Men seni uyimga olib ketgani keldim. Marhamat qilib borsang, farzandlarimni ko'rib, xasta xotinimni tashrifing bilan sevintirsang, qavm-qarindoshlarim, do'stoshnalarim oldida **boshim osmonga yetardi**. (133-bet)

imkoniyatni boy bergan – imkoniyatga erishgan: Shunda Rasululloh (s.a.v.): «Men minbarga chiqayotganimda Jabroil alayhissalom kelib «onasi va otasi hayotlik vaqtida yoki bulardan biri hayot bo'la turib, ularning roziligini olib, jannati bo'la olmagan va bu **imkoniyatni boy bergan** farzandning burni erga ishqalsin!» - dedilar. Men ham «omiy» dedim» - dedilar. (61-bet) –Bu nuqtada ikki shaxsning to'qnashuvini shunchaki oilaviy mojaro emas, ijtimoiy masala sifatida o'rganishimiz va hal etishimiz kerak bo'ladi. Bularni biz bedavo dard emas, tuzatish **imkoniyatiga erishilgan** arzimagan kamchiliklar deb qabul qilishimiz kerak. (98-bet)

ot turkumiga oid antonimik frazeologizmlar:

yuzining yorug'ligi – betining qoraligi: Otaning ish-amali farzandiga singsa, uning xulqida jilvagar bo'ladi. Bolani tergap nazorat qilish ota-ona **yuzining yorug'ligini** ta'minlaydi. (9-b.) – Erkak va ayol orasidagi ishqning beqarorligi xususida hayotda ko'p misollarga duch kelganimiz. Bugun «sevamano sevaman, sensiz menga dunyo qorong'u!» deb oh-voh qilib yurganlar ertaga qarasangiz «**betining qoraligini** ko'ring» deb bir-biriga teskari qaraydi. (32-bet)

sifat turkumiga oid antonimik frazeologizmlar:

pok dil – yuragi nopok: Ishq – shunchalar qaysarki, uning oldida podshoh ham gado ham teng, u shunday zulmkorki, uning qoshida iflos-fosiq ham, **pok dil** oshiq ham bir... (22-bet); Xotin pok nihod (toza tabiatli) va **pok dil** bo'lsun; kadbonu (ishchan uy bekasi) eriga do'st bo'lg'ay. Hayolig', taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlag'uvchi bo'lsin. Deb durlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo'lur. (99-bet) – Ammo... Qani edi, hayotda shu «ammo» bo'lmasa... Hayotda farzandidan kechuvchi **yuragi nopok** onalar ham bor, onalik huquqidan mahrum qilinuvchilar ham bor. (55-bet)

Frazeologik zid ma'nolilik, avvalo, iboraga xos bo'lgan konnotativ ma'noga ko'ra, qolaversa, iboralarning qarshilantirilishi asosidagi ifodalilikka ko'ra badiiy matn uchun zaruriy vositadir. Agar iroda

chinakam aql bilan quvvatlangan bo'lsa – engadi. (12-b.) – Oradan bir muddat o'tib, yana ayni shu erga kelganlarida o'sha navqiron yigitni bog'da ko'rmay, qayerdaligini surishtiradilar. Odamlar:

–U aqldan o'zib qolib, toqqa chiqib ketgan, - deb javob berishadi. (34-bet)

Adib asarida leksik - frazeologik zid ma'nolilik ko'rinishlari ham tasvirning aniqligi va ifodaliligini ta'minlagan: *Men o'z ko'nglimga da'vat uslubini qo'llashni ma'qul ko'rdim. Chunki har bir odam birinchi galda o'z-o'zini tarbiya qilishi kerak, deb o'ylayman. Har birimiz o'z-o'zimizni, xususan, ko'nglimizni idora qila bilmog'imiz shart. (2-bet)*

Bu o'rinda «o'z-o'zini tarbiya qilish» va «ko'nglimizni idora qila bilmog'imiz» leksik-frazeologik antonimdir.

Tohir Malik kontekstual zid ma'nolilikning o'ziga xos namunalarini yaratgan; voqea-hodisalar, harakat-holatlar, aqliy-ruhiy jarayonlar o'rtasidagi zidlik, kontrastlarni bo'rttirib ko'rsatishga erishgan. O'zbek tilida «xursandchilik» va «siqilmok» so'zlari antonim emas, ammo ular orasida, unuman olganda, qandaydir miqdoriy zidlik bor. Ammo ulardagi zid ma'nolilik kontekstuallikda, ya'ni badiiy nutqda shunday xususiyat kasb etishi sezilib turadi: «Endilikda xotun vajhidan xursandchilik bo'ldi, magar ro'zg'or vajhidan siqildim».

Asarlarda qahramonlar ruhiy holatlari o'rtasidagi kuchli kontrastlilikni bo'rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so'z boshqa bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha birlikka birdaniga zidlantiriladi: *Bosh aql va ilmga to'lib toshsa ham, axloqni sira unutmaslik kerak: inson o'zidagi ma'naviy jihatlarni, vijdon va nafsni tarbiyalashi, ehtirosini boshqara olishi, xunuk odatlarni tark etishi, ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo'naltirishi kerak. Yo'qsa, u to'g'ri yo'ldan ozishi mumkin. (13-b.)*

Demak, «ma'naviy jihatlarni tarbiyalash», «vijdon va nafsni tarbiyalash», «ehtirosini boshqara olish», «xunuk odatlarni tark etish», «ilmiy yutuqlarini insoniyat foydasiga yo'naltirish» kabi birliklarga «to'g'ri yo'ldan ozish» iborasi qarshilantirilgan.

Ma'lumki, zid ma'nolilik bir turkumli so'zlar doirasida bo'ladi. Ammo turli so'z turkumlariga oid so'zlarda ham ma'nolar tarkibidagi muayyan semalar o'rtasida ham zidlik mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, sifat turkumiga oid «yuqori» so'zining ma'nosi tarkibida «tepaga yo'nalgan» ma'nosi asosiy, fe'l turkumiga oid «so'lmoq» so'zida esa «jonsizlik holati» etakchi. Bu ikki so'z o'rtasidagi ma'noviy zidlikni tasavvur etish ancha qiyin. Bunday zid ma'nolilikni ayrim tadqiqotchilar «turkumlararo antonimiya» nomi bilan ataydilar. Bunday zid ma'nolilikdan ham asarlarda unumli foydalanilgan, bu hodisa ham yozuvchining quyuq ifodali tasviri uchun xizmat qilgan: «U yuqori darajani ko'zlab yurgan edi, zamon o'zgardi, so'ldi.»

Bu o'rinda turli so'z turkumlari o'rtasidagi antonimlikni kontekst beryapti, ularni kontekstual antonimlar desa ham bo'ladi.

Asarda bunday gaplarni talay uchratish mumkin. Har bir antonimik birlikning o'ziga xos sinonimik qatori ham bo'ladi, matn talabi bilan ma'lum birini tanlash imkoniyati yuzaga keladi.

Antonimik birliklar matnda aniq seziladi, ularga xos ma'noning aniq va qaysi maqsadga yo'naltirilganligi matn uchun juda muhim sanaladi. Tohir Malikning asl til mahorati uning antonimik birliklardan tasvir tiniqligi, ifodadagi muayyan nuqtaga yo'l berish maqsadlarida foydalanishida yaxshi ko'rinadi.

Frazeologik birliklar Tohir Malikning «Odamiylik mulki» asari tilining xalq tiliga yaqinligini, hayotiyeligini namoyon etishga hissa qo'shadi. Tilimizda bu kabi beqiyos vositalarning bugungi kungacha faol nutq birligi sifatida muhim o'ringa egaligi xalqimizning o'ziga xos milliy qarashlari hamda madaniy jihatlari beqiyos va boyligini aks ettiradi. Tohir Malikning «Odamiylik mulki» asarida qo'llanilgan o'zgarishsiz va qayta ishlangan frazeologik birliklar o'zbekona milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalashda beqiyos frazeostilistik vositalar vazifasini bajara olgan. Yozuvchi frazeologik iboralardan personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida unumli foydalangan.

Tohir Malik hikoyalarida qo'llangan iboralar ham qahramon nutqida, ham muallif nutqida kuzatiladi. Ko'pincha adib kulgili vaziyatlarni yaratish maqsadida iboralardan unumli foydalanadi. Natijada, asar tili jozibali, ta'sirchan bo'lgan.

Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Badiiy asarda ijodkor tilda mavjud bo'lgan turli vositalardan maqsadiga muvofiq holda tanlab qo'llaydi. Asarning estetik qimmatini oshirishga hissa qo'shgan birliklar ijodkor mahoratini namoyon etadi. Mahoratli ijodkor mavjud birliklar bilan bir qatorda o'zi ham yangi ifodalarni o'ylab topadi yoki nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda tildagi leksema mazmuniga yangicha «tus» beradi. Ularning ba'zilar vaqt o'tishi bilan adabiy til me'yorlari asosida tilning lug'at boyligini boyitishga hissa qo'shadi, ba'zilar esa muayyan nutqqa xosligicha qoladi.


Konnotativ ma'no hosil qiluvchi frazeologik vositalar ijodkor mahorati va uslubini namoyon etadi, asarning badiiyligini yanada oshirishini inobatga olib, Tohir Malikning badiiy matndagi poetik aktuallashtirilgan frazeologik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilash maqsadida frazeologik polisemiya, frazeologik omonimiya, sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik graduonimiya kabilarga alohida diqqat qaratildi.

Tahlillarimiz Tohir Malikning iboralardan o'ta umumli foydalanganligini ko'rsatadi. Umuman iboralarning badiiy asardagi ifodasi o'ta keng va turli-tumandir. Buni Tohir Malikning "Odamiylik mulki" asarida ham yorqin ko'rish mumkin. Tohir Malikning mazkur asarida kishilarning ruhiy holatlarini ko'rsatish uchun qo'llangan iboralar ko'pchilikni tashkil etadi. Asarning biror o'rni yo'qqi, ibora qo'llanmagan bo'lsa. Ular obrazlilikni oshirishda muhim o'rin egallagan.

Tohir Malik ijodi tubi javohir-u marvaridlar bilan to'la, mavjlanib turuvchi ummonni eslatadi. Unga sho'ng'igan sayin kishi takrorlanmas go'zallik va boylikni his etib boraveradi. Muallif asarlarini takrorlanmas badiiylilik, jozibadorlik, falsafiylik bilan boyitgan boshqa ijodkorlarda uchramaydigan ifodalar milliy tilimiz, madaniyatimiz xazinasini boyitishga hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullaev Sh. *O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari*, Toshkent, 1966, 9-58-b.
2. Sh.Rahmatullaev. *Nutqimiz ko'rki*, Toshkent, 1970, 5-43-b.
3. Tursunov U. va boshqalar. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*, Toshkent, 1992, 55-126-b.
4. Tilavova M. *Tohir Malikning "odamiylik mulki" asarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning funksional jihati* // *Science and innovation in the education system*. –2023. –T. 2. –No.
5. Yo'ldasheva D. *Nutqiy muloqotda sukut hodisasi "Ko'p tillilik va madaniyatlararo muloqot: tajriba va muammolar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari*. – Toshkent. 23-oktabr, 2023. –121-126-b.
6. Tilavova, M. (2023). *Tohir Malikning "odamiylik mulki" asarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning funksional jihati*. *Science and innovation in the education system*, 2(5), 197-203.
7. Tilavova, M. (2023). *Tohir Malikning "odamiylik mulki" matni tarkibida frazeologik birliklarning aynan hamda okkazonal o'zgarishlar asosida ifodalanishi*. *Development and innovations in science*, 2(4), 22-26.
8. Laylo, J. R. (2024). *Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat va o'simliklarning lingvomadaniy tadqiqi*. *News of UZMU journal*, 1(1.3), 299-302.
9. Махмудова З. «Ўтган кунлар» романининг миллий ўзига хослиги тўғрисида // *Ўзбек тили ва адабиёти*. 1996, 4-сон, 52-53-б.



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
05.06.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344